

yaratish va hududiy hamda milliy iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Barqaror investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida qonunchilikni soddalashtirish, elektron ruxsatnoma va vizalarni ta'minlovchi yagona interaktiv platformalarni joriy etish, raqamli xizmatlarni rivojlantirish tavsiya etiladi. O'zbekiston turizmini global bozorda targ'ib qilish uchun xalqaro ko'rgazmalar, sayohat haftaliklari va media-reklama kampaniyalarini kengaytirish, qo'shma loyihalarni amalga oshirish orqali xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash zarur. Qolaversa, turizm sohasidagi kadrlar tayyorligini oshirish, oliy ta'lim va kasb-hunar tizimlarida amaliyot va xorijiy stajirovkalarni tashkil etish, mahalliy kadrlar malakasini oshirish orqali xizmatlar sifatini yaxshilash mumkin. Nihoyat, turizm obyektlarini xususiy sektor bilan birgalikda rivojlantirish, daromadlarni raqamlashtirish va infratuzilmani yaxshilash orqali O'zbekistonning global turizm bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirish mumkin. Tavsiya etilayotgan chora-tadbirlar mamlakatning turizm salohiyatini maksimal darajada ochish, barqaror investitsiya muhitini shakllantirish va iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishga hissa qo'shishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Prezident.uz. (2026). Hududlarning turizm salohiyatini oshirish va xorijiy investitsiya loyihalarini jadallashtirish bo'yicha videoselektor yig'ilishi.* <https://president.uz/oz/lists/view/8049>
2. *Milliy statistika qo'mitasi. (2026). 2025-yil O'zbekistonga kelgan turistlar statistikasi.* <https://stat.uz>
3. *United Nations World Tourism Organization (UNWTO). (2025). World Tourism Barometer, January–September 2025. Madrid: UNWTO.* <https://www.unwto.org>
4. *Mirziyoyev, Sh. (2023). O'zbekiston turizmini rivojlantirish strategiyasi va investitsiya imkoniyatlari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot Xizmati.*
5. *O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. (2025). Milliy turizm salohiyatini rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlar. Toshkent: Turizm qo'mitasi.*
6. *World Bank. (2025). Uzbekistan Economic Update: Tourism and Investment Opportunities. Washington, D.C.: World Bank.* <https://www.worldbank.org>
7. *Asian Development Bank (ADB). (2025). Investment Climate Assessment: Uzbekistan. Manila: ADB.* <https://www.adb.org>
8. *Kadyrova, L., & Tashkentov, A. (2024). Tourism Infrastructure and Economic Development in Uzbekistan. Journal of Central Asian Studies, 18(2), 45–62.*
9. *OECD. (2025). Enhancing Tourism Investment in Emerging Economies: Uzbekistan Case Study. Paris: OECD Publishing.* <https://www.oecd.org>
10. *Rashidov, F. (2023). Institutsional investorlarning turizm sohasiga jalb qilinishi va barqaror iqtisodiy o'sish. Toshkent: Iqtisodiyot va Menejment jurnali, 12(4), 77–89.*

MOLIYA BOZORI ISHTIROKCHILARINING ESG REYTINGINI OSHIRISHDA DAROMADLAR HISOBINING SHAFFOFLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Davronova Dilnoza Damirovna

Samarqand iqtisodiyot va servis institute magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarining ESG (ekologik, ijtimoiy va davlat) reytinglarini shakllantirishda moliyaviy shaffoflikning o'rni tahlil qilinadi. Ayniqsa, MHXS 15 standarti asosida daromadlarni tan olish korporativ boshqaruv sifatini baholashda asosiy indikator asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ESG, MHXS 15, moliya bozori, daromadlar shaffofligi, korporativ boshqaruv, investitsiya jozibadorligi.

Zamonaviy global iqtisodiyotda xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati nafaqat ularning sof foydasi yoki rentabellik darajasi bilan, balki ularning ijtimoiy va ekologik mas'uliyati hamda boshqaruv sifati, ya'ni ESG (Environmental, Social and Governance) ko'rsatkichlari bilan baholanmoqda. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston -2030" strategiyasi doirasida moliya bozorini xalqaro talablarga moslashtirish, barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish va investitsiya jozibadorligini oshirish ustuvor vazifalar etib belgilangan. Bu jarayonda korxonalarining ESG reytingini shakllantirish moliyaviy hisobotlarning shaffofligi poydevor vazifasini o'taydi.

ESG konsepsiyasining "G" (Governance – korporativ boshqaruv) tarkibiy qismi bevosita axborot ochiqligi va hisobdorlik bilan bog'liqdir. Investorlar va moliya bozori ishtirokchilari uchun korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati natijalarini aks ettiruvchi eng asosiy ko'rsatkich – bu uning daromadlaridir. Daromadlar hisobini xalqaro standartlar, xususan, MHXS 15 "Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum" (IFRS 15) standarti asosida yuritish korxonaning moliyaviy barqarorligini baholashda mantiqiy va shaffof mexanizmni ta'minlaydi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, daromadlarni tan olishda subyektiv yondashuvlardan voz kechib, MHXSning besh bosqichli modeliga o'tish moliya bozoridagi axborot asimmetriyasini kamaytirishga xizmat qiladi. Shaffof daromadlar hisobi korxonaning korporativ boshqaruv reytingini oshiradi, bu esa o'z navbatida xalqaro ESG fondlari va investorlari uchun "yashil" va barqaror moliya bozoriga kirish eshigini ochadi. Maqolada daromadlar hisobini takomillashtirish orqali korxonalarining ESG reytingini yuksaltirishning metodologik jihatlari va amaliy ahamiyati yoritib beriladi.

Tadqiqot jarayonida mantiqiy umumlashtirish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va metodologik interpretatsiya usullaridan foydalaniladi. Xususan, MHXS 15 "Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum" standarti talablari korporativ boshqaruvning shaffoflik mezonlari va axborot ochiqligi prinsiplari bilan o'zaro solishtirildi. Ma'lumotlar manbasi sifatida quyidagilar tahlil qilindi: Xalqaro ESG metodologiyalari; O'zbekiston Respublikasidagi buxgalteriya hisobi islohotlari va "O'zbekiston 2030" strategiyasi doirasidagi me'yoriy hujjatlar; Moliya bozorini ESG tamoyillari asosida takomillashtirishga oid xalqaro ilmiy nashrlar. Metodologiyaning asosi sifatida daromadlarni tan olishning besh bosqichli modeli va uning korxonaning boshqaruv sifati (G) reytingini belgilovchi indikatorlarga ta'sirini baholash mezonlari tanlab olindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, daromadlar hisobining shaffofligi korxonaning ESG reytingidagi "G" (Governance) indikatorini shakllantiruvchi 5 ta asosiy sub-omilga bevosita ta'sir ko'rsatadi. MHXS 15 standarti bo'yicha daromadlarni tan olishning besh bosqichli modeli quyidagi tahliliy natijalarni berdi:

1. Shartnomani va majburiyatlarni aniqlash (1 va 2-bosqichlar): Korporativ boshqaruvda shartnomaviy intizomning mustahkamlanishiga olib keladi. Har bir majburiyatning alohida baholanishi korxonaning o'z xaridorlari oldidagi ijtimoiy mas'uliyatini ham aniqlashtiradi.

2. Bitim narxi va uni taqsimlash (3 va 4-bosqichlar): Moliyaviy manipulatsiyalar (masalan, daromadlarni sun'iy oshirish) xavfini minimal darajaga tushiradi. Bu investorlar uchun "axborot sifati" indikatorini 30-40% ga oshirish imkonini beradi.

3. Daromadni tan olish (5-bosqich): Nazorat tushunchasiga asoslangan daromadni tan olish korxonaning real aktivlari va majburiyatlari holatini aks ettirib, ESG hisobdorligidagi shaffoflikni ta'minlaydi.

1-jadval

MHXS 15 elementlarining ESG reytingi mezonlari bilan muvofiqligi

MHXS 15 bosqichlari	ESG (Governance) mezonlari	Ijobiy ta'siri
Majburiyatlarni aniqlash	Hisobdorlik	Shartnomaviy risklarni boshqarish sifati ortadi
Bitim narxi tahlili	Etik xulq-atvor	Moliyaviy natijalarni yashirish imkoniyati yo'qoladi
Daromadni tan olish vaqti	Shaffoflik	Moliya bozori ishtirokchilariga aniq signallar beriladi

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston korxonalariga uchun MHXSga o'tish shunchaki buxgalteriya texnikasi emas, balki strategik boshqaruv qurolidir. "O'zbekiston 2030" strategiyasida belgilangan moliya bozorini ESG tamoyillari asosida takomillashtirish vazifasi daromadlar hisobini xalqaro andozalarga keltirishni taqozo etadi.

ESG reytingi yuqori bo'lgan korxonalar pastroq foiz stavkalarida kredit jalb qilish va xalqaro fond bozorlarida o'z aksiyalarini muvaffaqiyatli joylashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Hozirgi kunda mahalliy korxonalarda daromadlar hisobini MHXS 15 ga transformatsiya qilishda kadrlar yetishmovchiligi va axborot tizimlarining tayyor emasligi asosiy to'siq bo'lib qolmoqda. Daromadlar shaffofligi tashqi auditorlar va reyting agentliklari uchun korxonaning "G" komponentini baholashda eng ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korxonalarda daromadlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish shunchaki hisob tizimini o'zgartirish emas, balki moliya bozorida korxonaning raqobatbardoshligini oshiruvchi strategik omildir. Tadqiqot yakunida quyidagi fundamental xulosalar shakllantirildi:

1. Korxonaning ESG reytingidagi "Governance" (Boshqaruv) komponenti bevosita moliyaviy hisobotlarning sifatiga bog'liq. MHXS 15 standarti tushumni tan olishda subyektivlikni kamaytiradi va investorlar uchun axborot asimmetriyasini bartaraf etadi. Bu esa o'z navbatida moliya bozori ishtirokchilarining korxonaga bo'lgan ishonch indeksini yuqori darajaga ko'taradi.

2. Daromadlarni tan olishning besh bosqichli modeli shartnomaviy munosabatlarni qat'iy tartibga soladi. Bu model korxonaga rahbariyatiga kelajakdagi pul oqimlarini aniq prognozlash imkonini beradi, bu esa barqaror rivojlanish (sustainable development) maqsadlariga to'la mos keladi.

3. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida moliya bozorini modernizatsiya qilish uchun mahalliy korxonalar xalqaro ESG fondlarining talablariga javob berishi shart. Daromadlar hisobining shaffofligi korxonaga "yashil obligatsiyalar" va investitsiya loyihalarida ishtirok etish uchun yo'l ochadi.

Amaliy tavsiyalar quyidagilardan iborat: Milliy buxgalteriya hisobi standartlarini (BHMS) MHXS 15 bilan to'liq uyg'unlashtirish jarayonini tezlashtirish; Korxonalarda daromadlar hisobini avtomatlashtirilgan ERP tizimlari orqali yuritishni yo'lga qo'yish, bu esa inson omili natijasida yuzaga keladigan xatoliklarni va manipulyatsiyalarni kamaytiradi; Buxgalter va auditorlarning ESG hisobdorligi hamda MHXS bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish mexanizmini yaratish.

Xulosa qilib aytganda, daromadlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish O'zbekiston korxonalarining global moliya bozoriga integratsiyalashuvini ta'minlovchi va ularning ESG reytingini yuksaltiruvchi asosiy poydevordir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida. 11.09.2023-yildagi PF-158-son.*

2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Xalqaro moliya hisoboti standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". 24.02.2020-yildagi PQ-4611-son.*

3. *IFRS 15 "Revenue from Contracts with Customers". International Accounting Standards Board (IASB).*

4. *GRI Standards (Global Reporting Initiative). Consolidated Set of GRI Sustainability Reporting Standards 2023.*

5. *Eccles, R. G., & Serafeim, G. (2013). "The Role of the Board in Civil Society and Sustainable Strategy". Harvard Business Review.*

6. *Sustaneanalytics & MSCI ESG Research. Methodology for ESG Ratings and Financial Transparency.*

7. *Ibragimov, A. K., & boshqalar. (2023). "Moliya bozorini rivojlantirishda MHXSning o'rni". Iqtisodiyot va ta'lim jurnali.*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINING MOLIVAVIY TAHLIL USULLARI

Olimxonova Dilnoza Abdurashidovna

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi stajor tadqiqotchisi

Zamonaviy ta'limning eng muhim jahon tendensiyasi uning integratsiyasi va axborotlashtirilishi bo'lib, bu mamlakatlarning yaqinlashuviga, yagona jahon ta'lim makonini shakllantirish uchun sharoitlar yaratishga olib keladi. Ko'pchilik Yevropa mamlakatlari tomonidan qabul qilingan Boloniya deklaratsiyasiga (2003-yil) qo'shilish ushbu mamlakatlarning ta'lim tizimlarini yaqinlashtirish yo'nalishida harakat qilishini anglatadi.

Rivojlangan mamlakatlarning uzluksiz va ko'p bosqichli ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha tajribasini moslashtirish respublikada ta'lim faoliyatida yangi usullar va texnologiyalarga o'tishni talab qiladi. Shu maqsadda 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilinib, unda "...oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirish, moliyalashtirishning samarali va shaffof mexanizmlarini joriy etish" vazifalari qo'yildi.⁵⁸

Keltirilgan vazifalardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari faoliyatining moliyaviy tahlili masalalari ham ilmiy, ham amaliy ahamiyat

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 2019 yil 8 oktabr, PF-5847-sonli Farmoni